

“FUQAROLIK HUQUQINING HUQUQ TIZIMIDA TUTGAN O'RNI”

Arolova Zarina Lochin qizi

SHDPI Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada huquq sohalarining bir turi bo'lgan fuqarolik huquqi haqida keng ma'lumot berib o'tilgan. Fuqarolik huquqi huquq sohalarida asosiy o'rinni egallashi bilan boshqa, huquqiy sohalaridan ajralib turadi. Fuqarolik huquqida mulkiy va nomulkiy munosabatlar, meros, xususiy mulk tushunchalari keng yoritiladi. Maqolaning asosiy maqsadi ham fuqarolar o'rtasida yuzaga keladigan mulkiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, huquqiy tizimni ochib berishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *fuqarolik kodeksi, mulk, xususiy mulk, huquqiy sohalar.*

Kirish. Mustaqillikkacha sobiq sovet huquqi tizimi sifatida shakllangan va rivojlanib kelgan bir necha o'nlab mustaqil huquqiy sohalarini o'z ichiga olgan huquqiy tizimning asosiy jihati uni tashkil etuvchi elementlarning ko'p turliligi va ularning umumiy, an'anaviy bo'lgan xususiy hamda ommaviy huquq tizimlariga ajratilmaganligida aks etar edi. Bunday yondashuvning afzalliklari qatorida huquq bilan tartibga solinadigan turli xil ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini yuqori darajada hisobga olish imkoniyatini, ularning birma-bir tarmoqlangan holda belgilanganligini ko'rsatish mumkin. Fuqarolik huquqi – bu shaxslarning bir-biri bilan va davlat bilan bo'lgan munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy tizimning muhim qismlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston fuqarolik huquqi shaxslar, yuridik shaxslar va davlat o'rtasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Fuqarolik huquqi orqali har bir shaxs o'z mulkiga egalik qilish, uni boshqarish va foydalanish huquqlariga ega bo'ladi. Bu huquqlar davlat tomonidan himoya qilinadi va qonunlar bilan mustahkamlanadi. O'zbekistonning fuqarolik kodeksi fuqarolarning Fuqarolik qonunchiligi ular tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar ishtirokchilarining tengligini e'tirof etishga, mulkning daxlsizligiga, shartnomaning erkinligiga, xususiy ishlarga biron-bir kishining o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'yilmasligiga, fuqarolik huquqlari to'sqinliksiz amalga oshirilishini, buzilgan huquqlar tiklanishini, ularning sud orqali himoya qilinishini ta'minlash zarurligiga asoslanadi. Fuqarolar (jismoniy shaxslar) va yuridik shaxslar o'z fuqarolik huquqlariga o'z erklariga muvofiq ega bo'ladilar va bu huquqlarini o'z manfaatlarini ko'zlab amalga oshiradilar. Ular shartnoma asosida o'z huquq va burchlarini belgilashda va qonunchilikka zid bo'lmagan har qanday shartnoma shartlarini aniqlashda erkindirlar. Tovarlar, xizmatlar va moliyaviy mablag'lar O'zbekiston Respublikasining butun hududida erkin harakatda bo'ladi. Xavfsizlikni ta'minlash, insonlarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, tabiatni va madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish uchun zarur bo'lsa, tovarlar va xizmatlar harakatda bo'lishini cheklash qonunchilikka muvofiq joriy etilishi mumkin. huquqining asosiy manbasi bo'lib, unda shaxslarning huquq va majburiyatlari belgilab qo'yilgan.

Fuqarolik huquqi doirasida shartnomalar tuzish, meros olish, zararlarni qoplash va boshqa ko'plab huquqlar kafolatlanadi. Masalan, biror mulkni sotib olish yoki sotish jarayonida tomonlar o'z huquqlarini qonuniy ravishda amalga oshirishlari kerak. Agar nizolar yuzaga kelsa, ularni sud orqali hal qilish mumkin. Shuningdek, fuqarolik huquqi insonlarning shaxsiy hayotiga daxl qilmaslik, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash, shaxsiy qadr-qimmatni himoya qilish kabi nomulkiy huquqlarni ham o'z ichiga oladi. Fuqarolik huquqi jamiyatdagi tartib-intizomni saqlashda muhim o'rin tutadi va insonlar o'rtasidagi adolatli munosabatlarni ta'minlaydi. Shu tariqa, fuqarolik huquqi har bir shaxsning huquqiy himoyasini kafolatlaydi. Fuqarolik huquqida ishonchnoma, vakillik, davo muddatlari, davlat va fuqarolar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar, qimmatli qog'ozlar pul muomilasi kreditlar va aksiyalar sotib olish hammasi fuqarolik huquqimizdir. Fuqarolik huquqi obyekt – bu fuqarolik huquqiy munosabatlarida ishtirok etadigan va ularga nisbatan shaxslar huquqlari hamda majburiyatlari mavjud bo'ladigan narsalar yoki hodisalardir. Fuqarolik huquqi obyekt quyidagilarga bo'linadi: 1. Mol-mulk (narsalar): Ko'chmas va ko'char mulklar, masalan, yer uchastkalari, binolar, transport vositalari va boshqa moddiy ob'ektlar va hayvonlar ham fuqarolik huquqi obektidir 2. Pul va qimmatli qog'ozlar: Pul mablag'lari, obligatsiyalar, aksiyalar va boshqa moliyaviy hujjatlar. 3. Intellektual mulk: Ijodiy faoliyat natijalari, shu jumladan, ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar, adabiy asarlar, musiqa va boshqalar. 4. Shaxsiy nomoddiy boyliklar: Shaxsiy hayot, sha'n, qadr-qimmat, ismi va boshqa nomoddiy huquqlar. 5. Huquqiy majburiyatlar va talablar: Bunda qarz, kafolat, sug'urta kabi majburiyatlar, shuningdek, kelishuv asosida boshqa shaxsdan biror narsa talab qilish huquqi ham kiritiladi. Bu obyektlar fuqarolik huquqi subyektlari o'rtasidagi turli shartnomalar, bitimlar yoki boshqa huquqiy harakatlar orqali o'zgarishi yoki boshqalarga o'tishi mumkin. Fuqarolik huquqi quyidagilarni nazarda tutadi:

Fuqarolik huquqi (umumiy huquq), huquqning yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli qismi

Fuqarolik huquqi (huquqiy tizim) yoki qit'a huquqi, kontinental Evropada paydo bo'lgan va Rim huquqiga asoslangan huquqiy tizim

Xususiy huquq – xususiy shaxslar o'rtasidagi munosabatlarga tegishli fuqarolik-huquqiy tizimdagi huquq sohasi

Munitsipal huquq, xalqaro huquqdan farqli ravishda davlatning ichki huquqi

Xususiy huquq yoxud xususiy huquqni tartibga solishning asosida fuqarolik huquqi turadi. Shu bilan uning huquq tizimida xususiy, awalambor, mulkiy munosabatlarni tartibga solishga yo'naltirilgan asosiy, tayanch soha sifatidagi o'rni belgilanadi. Zotan, fuqarolik huquqining umumiy normalari (me'yorlari) va prinsiplari, agarda maxsus qonunchilikda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatma, cheklovlar bo'lmasa-da, xususiy huquq doirasiga kiruvchi barcha munosabatlarni tartibga solishda qo'llanishi mumkin. Bu birinchi navbatda, oila huquqiga taalluqli bo'lib, oila to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan oila a'zolari o'rtasidagi mulkiy va shaxsiy nomulkiy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonun hujjatlari oilaviy munosabatlarning mohiyatiga zid kelmagan taqdirdagina qo'llaniladi

(O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 6- moddasi). Bunday holatni bevosita mehnat, ekologiya, qishloq xo'jalik huquqlari institutlari bilan bog'liq xususiy huquqiy munosabatlarning tartibga solinishi jarayonida ham kuzatish mumkin. Biroq mehnat huquqining yoxud oila huwww.ziyouz.com kutubxonasi quqining normalari hech bir sharoitda fuqarolik-huquqiy tartibga solish doirasida tadbiiq etilmaydi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytish mumkinki, fuqarolik huquqi xususiy huquq tizimida va, umuman, ko'plab mulkiy va nomulkiy munosabatlarning huquqiy asoslarini belgilashda markaziy hamda hal qiluvchi o'rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "O'zbekiston" Toshkent 2024y.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi "O'zbekiston" Toshkent 2023y.
3. R.DJ. Ruziyev, V.R. Topildiyev – "Fuqarolik huquqi" Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa 2021y.
4. Wikipedia "Fuqarolik huquqi" 2024y.